



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

ORGANIZMDA TO‘PLANADIGAN ANTIBIOTIKLARNING PROFILAKTIKASI

Xolmo‘minova Gulzoda Shavkat qizi, Badalova Nilufar Ro‘ziboy qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti. Samarqand.

O‘zbekiston Respublikasi

Ilmiy rahbar: Muxsinova Shaxlo Mulximovna

Tadqiqot maqsadi. So‘nggi yillarda antibiotiklarning keng qo‘llanilishi natijasida ularning organizm to‘qimalarida to‘planib qolishi va shu bilan bog‘liq toksik, allergik hamda disbioz holatlarining ko‘payishi kuzatilmoqda. Tadqiqotning maqsadi — organizmda to‘planish xususiyatiga ega bo‘lgan antibiotiklarning nojo‘ya ta‘sirini kamaytirish, ularni oqilona qo‘llash va profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot uchun klinik kuzatuv ma‘lumotlari, laboratoriya hayvonlari ustida olib borilgan tajribalar hamda amaliyotda keng qo‘llaniladigan antibiotiklar (aminoglikozidlar, tetratsiklinlar, makrolidlar) tanlab olindi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda o‘tkazildi:

1. Antibiotiklarning farmakokinetik xususiyatlarini (yarim parchalanish davri, to‘qima akkumulatsiyasi) o‘rganish.
2. Qon, jigar va buyrak to‘qimalarida antibiotik qoldiqlari miqdorini spektrofotometrik usul bilan aniqlash.
3. Profilaktik vositalar (enterosorbentlar, probiotiklar, gepatoprotektorlar) qo‘llangan guruh va nazorat guruhi o‘rtasida solishtirma tahlil o‘tkazish.
4. Statistika natijalar “Student t-test” yordamida qayta ishlangan.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish. O‘rganilgan antibiotiklar orasida tetratsiklin va gentamitsin preparatlari jigar va buyrak to‘qimalarida eng yuqori darajada to‘planishi aniqlandi. Profilaktika sifatida enterosorbentlar (aktivlashtirilgan ko‘mir, smekta) va probiotiklar (*Lactobacillus spp.*) qo‘llangan guruhlarda antibiotik qoldiqlari darajasi 30–45% gacha kamaydi. Gepatoprotektor (*Essentiale forte*) qo‘llanilganda jigar fermentlarining faolligi me‘yorga yaqinlashdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, antibiotiklar bilan davolashda bir vaqtning o‘zida detoksikasiya va mikroflora tiklovchi vositalarni qo‘llash organizmni himoya qilishda samarali hisoblanadi.

Xulosa. Ayrim antibiotiklar (aminoglikozidlar, tetratsiklinlar) organizmda to‘planib, toksik ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Antibiotik terapiyasi vaqtida oqilona doza, davolash muddati va profilaktik vositalarni to‘g‘ri tanlash organizmni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Enterosorbentlar, probiotiklar va gepatoprotektorlar qo‘llanishi antibiotiklarning to‘planishini kamaytiradi hamda ularning nojo‘ya ta‘sirini oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida antibiotiklar farmakokinetikasini monitoring qilish tizimini takomillashtirish ularning xavfsizligini yanada oshiradi.